

**YASHIRIN HOKIMIYAT KLASIFIKATSIYASI**

**SECRET POWER CLASSIFICATION**

**КЛАССИФИКАЦИЯ СЕКРЕТНОЙ СИЛЫ**

**Aralova Iroda Zokir qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi*  
[irodaaralova2@gmail.com](mailto:irodaaralova2@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada zamonaviy siyosiy va ijtimoiy tizimlarda yashirin hokimiyat hodisasining mohiyati, kelib chiqish sabablari hamda tasnif turlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda hokimiyatning rasmiy va norasmiy shakllari o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik yoritilib, norasmiy, biroq real ta'sirga ega bo'lgan boshqaruv mexanizmlari alohida e'tiborga olingan. Maqolada "yashirin hokimiyat" tushunchasi klassik hokimiyat nazariyalari (M. Vebber, R. Dall, M. Fuko) asosida qayta ko'rib chiqilib, uni iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va axborot shakllariga ajratish bo'yicha konseptual yondashuv ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *hokimiyat, yashirin hokimiyat, siyosiy ta'sir, mafkuraviy boshqaruv, axborot nazorati, elita, manipulyatsiya.*

**Annotation.** *This article scientifically analyzes the essence, causes of origin and types of classification of the phenomenon of hidden power in modern political and social systems. The study highlights the complex interrelationship between formal and informal forms of power, paying special attention to governance mechanisms that have an informal, but real impact. The article revises the concept of "hidden power" based on classical theories of power (M. Weber, R. Dall, M. Foucault) and develops a conceptual approach to dividing it into economic, political, ideological and informational forms.*

*The relevance of the study is that in the conditions of global informatization and digital transformation, hidden forms of power are becoming increasingly complex and their scope of influence is expanding. In particular, the increasing influence of economic interest groups, transnational corporations, information platforms and social networks on public opinion is giving rise to new mechanisms of hidden power.*

**Keywords:** *power, hidden power, political influence, ideological control, information control, elite, manipulation.*

**Аннотация.** *В статье научно анализируются сущность, причины возникновения и типы классификации феномена скрытой власти в современных политических и социальных системах. В исследовании рассматривается сложная взаимосвязь формальных и неформальных форм власти, особое внимание уделяется механизмам*

управления, оказывающим неформальное, но реальное влияние. В статье пересматривается понятие «скрытой власти» на основе классических теорий власти (М. Вебер, Р. Даль, М. Фуко) и разрабатывается концептуальный подход к разделению её на экономическую, политическую, идеологическую и информационную формы.

Актуальность исследования заключается в том, что в условиях глобальной информатизации и цифровой трансформации скрытые формы власти становятся всё более сложными, а сфера их влияния расширяется. В частности, растущее влияние экономических групп интересов, транснациональных корпораций, информационных платформ и социальных сетей на общественное мнение порождает новые механизмы скрытой власти.

**Ключевые слова:** власть, скрытая власть, политическое влияние, идеологический контроль, информационный контроль, элита, манипуляция.

## KIRISH

Zamonaviy siyosiy va ijtimoiy tizimlarda hokimiyat tushunchasi eng muhim va murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Hokimiyat — bu jamiyatni boshqarish, qarorlar qabul qilish va resurslarni taqsimlash jarayonida markaziy o‘rin tutuvchi ijtimoiy mexanizmdir. Ammo tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, hokimiyat har doim ham ochiq, rasmiy shaklda amalga oshirilmaydi. Ayrim hollarda u norasmiy tarmoqlar, iqtisodiy elitalar, mafkuraviy guruhlar yoki axborot vositalari orqali yashirin tarzda namoyon bo‘ladi.

Yashirin hokimiyat (yoki “soya hokimiyati”) deganda, rasmiy qonuniy institutlar tashqarisida, lekin ularning faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlar va manfaat guruhlari tushuniladi. Bunday kuchlar jamiyat hayotidagi muhim qarorlarni qabul qilish jarayoniga sezilarli darajada aralashib, siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Mazkur mavzuning **dolzarbligi** shundaki, global axborotlashuv, raqamli texnologiyalar va transmilliy korporatsiyalar davrida hokimiyatning yashirin shakllari tobora murakkablashib bormoqda. Endilikda hokimiyat faqat siyosiy strukturalar orqali emas, balki axborot oqimini boshqarish, iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali ham amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqolaning **asosiy maqsadi** — yashirin hokimiyat tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, uning turlari va tasnifini aniqlash, shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi ta’sir mexanizmlarini yoritishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida hokimiyatning klassik nazariyalari (G. Moska, V. Pareto, R. Mayklis, C. Rayt Mills, R. Dall) hamda zamonaviy yondashuvlar (M. Fuko, M. Kastels va boshqalar) asos qilib olingan. Ushbu yondashuvlar hokimiyatning faqat rasmiy institutlar doirasida emas, balki norasmiy tarmoqlar orqali ham faoliyat yuritishini ko‘rsatadi.

Shu bois, yashirin hokimiyatni o'rganish siyosiy tizimlarning haqiqiy tuzilishini anglash, jamiyatdagi adolat va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlash uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yashirin hokimiyat masalasi siyosatshunoslik, sotsiologiya va falsafa fanlarida ko'p yillardan beri dolzarb mavzu sifatida o'rganilib kelmoqda. Ushbu tushuncha mohiyatan hokimiyatning norasmiy, ko'zga ko'rinmas, biroq real ta'sir kuchiga ega shaklini anglatadi. Yashirin hokimiyat fenomeni haqida ilk nazariy yondashuvlar XX asr boshlarida shakllangan bo'lib, u asosan elita nazariyasi doirasida talqin etilgan.

G. Moska, V. Pareto va R. Maykls singari klassik nazariyotchilar jamiyatning tabiiy ravishda boshqaruvchilar (elita) va boshqariluvchilarga (omma) bo'linishini asoslab berganlar. G. Moska o'zining "Hokimiyat sinfi" (1939) asarida hokimiyatning real egasi doimo ozchilik bo'lib, ular siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy ustunlik orqali jamiyatni nazorat qiladi, degan fikrni ilgari surgan<sup>42</sup>. Pareto esa "Aql va jamiyat" (1963) asarida elitarning aylanishi qonunini bayon etar ekan, hokimiyatning bir guruxdan boshqasiga o'tishini tabiiy jarayon sifatida ko'rsatadi. Bu nazariyalar yashirin hokimiyatning elitalar orqali amalga oshish mexanizmlarini tushuntirishda muhim metodologik asos yaratgan.<sup>43</sup>

R. Mayklsning "Siyosiy partiyalar" (1911) asarida ilgari surilgan "oligarxiyaning temir qonuni" tushunchasi ham bu borada alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, hatto eng demokratik tashkilotlar ham vaqt o'tishi bilan ozchilikning hokimiyati shaklini oladi. Bu esa siyosiy tizimlarda yashirin hokimiyatning tabiiy ravishda shakllanishini izohlaydi.

XX asr o'rtalarida Rayt Mills o'zining "Hokimiyat elitasi" (1956) asarida AQSh misolida siyosiy hokimiyatning harbiy, iqtisodiy va siyosiy elitalar o'rtasidagi uyg'unlashgan shaklini tahlil qilgan. U bu holatni "uchburchak elita modeli" deb atab, rasmiy demokratik institutlardan tashqarida faoliyat yurituvchi, ammo siyosiy qarorlarga hal qiluvchi darajada ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy qatlam mavjudligini ko'rsatadi. Robert Dall esa "Kim boshqaradi?" (1961) asarida bu fikrga nisbatan pluralistik yondashuvni ilgari suradi: uning fikricha, hokimiyat bir markazda jamlanmaydi, balki ko'plab manfaat guruhlari o'rtasida taqsimlanadi. Shunga qaramay, Dall ham norasmiy tarmoqlar va manfaat ittifoqlarining siyosiy qarorlar qabul qilishdagi rolini inkor etmaydi.

**Metod va materiallar.** Ushbu tadqiqotda yashirin hokimiyat fenomenini tizimli, institutsional va tarmoq nuqtai nazaridan o'rganish maqsad qilingan. Mazkur maqsadga erishish uchun bir nechta ilmiy metod va empirik materiallardan foydalanildi. Tadqiqot sifat jihatdan tahliliy yo'nalishda olib borildi.

**Siyosiy tahlil metodi.** Bu metod yordamida siyosiy tizimdagi rasmiy va norasmiy kuch markazlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar o'rganildi. Hokimiyat subyektlari — siyosiy elita, manfaat guruhlari, iqtisodiy tarmoqlar va axborot institutlarining yashirin faoliyat mexanizmlari tahlil qilindi.

<sup>42</sup> Vebber, M. "Iqtisodiyot va jamiyat". Kaliforniya universiteti nashriyoti, 1978.

<sup>43</sup> Lyuks, S. "Hokimiyat: radikal qarash". Palgrave Makmillan nashriyoti, 2005.

Institutsional yondashuv. Ushbu yondashuv orqali davlat institutlari va norasmiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar o'rganildi. Bu metod yashirin hokimiyatning davlat boshqaruvi tizimiga qanday integratsiyalashganini aniqlash imkonini beradi.

Tarmoq tahlili. Hokimiyat subyektlari o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalar tarmoq modeli asosida ko'rib chiqildi. Ushbu metod orqali norasmiy aloqalar, manfaat ittifoqlari va ijtimoiy tarmoq elitalarining shakllanish jarayoni o'rganildi.

Sotsiologik kuzatuv va kontent-tahlil. Ommaviy axborot vositalari, siyosiy chiqishlar va tahliliy maqolalar asosida yashirin hokimiyatga oid narrativlar o'rganildi. Axborot manbalarida yashirin hokimiyatning qanday ko'rinishda tasvirlanishi, unga berilgan baholar va jamoatchilik reaksiyasi kontent tahlil orqali tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi. Turli mamlakatlar — AQSh, Rossiya, Xitoy va O'zbekiston tajribalari solishtirilib, yashirin hokimiyatning milliy xususiyatlari aniqlashtirildi. Bu yondashuv siyosiy tizimlar turlicha bo'lsa-da, yashirin hokimiyatning universal mexanizmlari mavjudligini ko'rsatadi.<sup>44</sup>

XXI asr siyosatshunosligida yashirin hokimiyat masalasi yangi yo'nalishda — tarmoq nazariyasi asosida o'rganila boshlandi. Manuel Kastelsning "Tarmoqli jamiyat" konsepsiyasida hokimiyat axborot oqimlari va raqamli tarmoqlar orqali amalga oshadi, degan g'oya ilgari surilgan. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy davrda yashirin hokimiyatning yangi shakllari — axborot hokimiyati, algoritmik boshqaruv va ijtimoiy tarmoq elitalari kabi fenomenlar vujudga kelmoqda.

Markaziy Osiyo va O'zbekiston kontekstida bu masala asosan norasmiy boshqaruv va klientelizm tizimi orqali tahlil etiladi. Masalan, J. Ilxomov (2007) O'zbekistonda siyosiy va iqtisodiy elitalarning norasmiy tarmoqlari davlat siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. S. Olimov (2015) esa mahalliy elitalar, qarindoshlik aloqalari va "mahalla tarmog'i" orqali shakllanadigan yashirin hokimiyat mexanizmlarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlar ko'rsatadiki, yashirin hokimiyat nafaqat siyosiy qarorlar, balki ijtimoiy resurslar taqsimotiga ham bevosita ta'sir etadi.<sup>45</sup>

Yaqin yillarda global miqyosda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yashirin hokimiyatning yangi ko'rinishlari paydo bo'ldi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt asosidagi algoritmik boshqaruv tizimlari jamoatchilik fikrini boshqarish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga norasmiy tarzda ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, hozirgi davr tadqiqotlarida yashirin hokimiyat faqat siyosiy yoki iqtisodiy fenomen emas, balki axborot-madaniy jarayon sifatida ham tahlil qilinmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashirin hokimiyat tushunchasi turli davrlarda turlicha talqin qilingan:

- klassik davrda — elita va oligarxik nazariyalar doirasida;
- XX asrda — manfaat guruhlar va tarmoq modellari orqali;

<sup>44</sup> Galbrayt, J. K. "Hokimiyatning tuzilishi". Xoughton Mifflin nashriyoti, 1983.

<sup>45</sup> Norqobilov, B. "Siyosiy jarayonlar va hokimiyat tizimi". Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

• XXI asrda esa — raqamli boshqaruv va axborot makonida yangi shaklga ega bo'lgan kompleks ijtimoiy fenomen sifatida.

Tadqiqotning nazariy bazasini quyidagi manbalar tashkil etdi:

- klassik elita nazariyalari (Moska, Pareto, Maykls);
- zamonaviy hokimiyat tarmoqlari haqidagi tadqiqotlar (Mills, Dahl, Castells);
- O'zbekiston va Markaziy Osiyo siyosiy tuzilmalariga oid ilmiy ishlanmalar (Ilkhamov, Olimov, Rashidov);
- xalqaro tashkilotlarning siyosiy boshqaruv va shaffoflik indeksleri (Transparency International, Freedom House ma'lumotlari).

Empirik ma'lumot sifatida esa:

- 2015–2024 yillar oralig'ida chop etilgan siyosiy tahlil va ekspert maqolalari;
- turli mamlakatlarda kuzatilgan yashirin hokimiyat holatlariga doir amaliy misollar;
- ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan “axborot elitalari” faoliyati haqidagi raqamli kuzatuv natijalari;
- ommaviy axborot vositalari va siyosiy chiqishlardan olingan ochiq manbalar ishlatildi.<sup>46</sup>

Tadqiqot chegaralari va yondashuvning ahamiyati. Ushbu tadqiqot global siyosiy jarayonlar kontekstida olib borilgan bo'lsa-da, asosiy e'tibor O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasiga qaratilgan. Maqsad — yashirin hokimiyatning turli ijtimoiy va siyosiy kontekstlarda qanday shakllanishini va ularning tasnifini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanganligi sababli, u nafaqat siyosatshunoslik, balki ijtimoiy psixologiya, axborotshunoslik va boshqaruv nazariyasi fanlari bilan ham uzviy bog'liqdir.

**Xulosa.** Yashirin hokimiyat zamonaviy siyosiy tizimlarning ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatdagi rasmiy boshqaruv tizimlari bilan bir qatorda, norasmiy ta'sir mexanizmlari orqali ham faoliyat yuritadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, yashirin hokimiyatning asosiy manbalari iqtisodiy resurslar, mafkuraviy nazorat, axborot oqimlarini boshqarish hamda siyosiy elitalar o'rtasidagi norasmiy kelishuvlardan iboratdir.

Mazkur hodisa jamiyatdagi qarorlar qabul qilish jarayonini bevosita belgilaydi, ammo ko'pincha bu jarayon shaffoflikdan yiroq bo'ladi. Shu bois yashirin hokimiyatni faqat “soya ostidagi siyosiy kuch” sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy boshqaruv tizimi sifatida o'rganish lozim. U iqtisodiy manfaatlar, mafkuraviy qadriyatlar va axborot texnologiyalarining uyg'unlashgan shaklida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashirin hokimiyatning jamiyatdagi o'rni ikki tomonlama baholanishi mumkin: bir tomondan, u rasmiy hokimiyatni qo'llab-quvvatlab, barqarorlikni ta'minlashi mumkin; ikkinchi tomondan esa, u ijtimoiy adolat, oshkoralik va demokratik tamoyillarga tahdid soluvchi omil sifatida qaraladi.

---

<sup>46</sup> Karimov, I. A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2008.

Shu sababli, zamonaviy boshqaruv tizimlarida yashirin hokimiyatni kamaytirishning asosiy vositalari sifatida axborot shaffofligini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, siyosiy va iqtisodiy elitalarning javobgarligini oshirish kabilarni taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, yashirin hokimiyatni tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu hodisa jamiyatdagi hokimiyat muvozanatini tushunish, adolatli boshqaruv tizimini shakllantirish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Vebber, M. "Iqtisodiyot va jamiyat". Kaliforniya universiteti nashriyoti, 1978.
2. Lyuks, S. "Hokimiyat: radikal qarash". Palgrave Makmillan nashriyoti, 2005.
3. Galbrayt, J. K. "Hokimiyatning tuzilishi". Xoughton Mifflin nashriyoti, 1983.
4. Karimov, I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2008.
5. Norqobilov, B. "Siyosiy jarayonlar va hokimiyat tizimi". Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.